Gipertoniya kasalligining rivojlanishida sotsio-emotsional intellektning ta'siri	639
Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li	
Integratsiyalashgan va interaktiv yondashuvlar orqali o'qish tushunishini o'rgatish.....	643
Aliqulova Mohinur	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish.....	647
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ravshanova Noila	
Didactic Potential of Innovative Methods in Teaching Biophysics Module	652
Choriyeva Mahfuza Sadriddinovna	
Notiqlik mahoratini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari	657
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li	
Kartografiya darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish yo'llari	660
Jololdinov Asror Toshtemirovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo'l harakati turlari bo'yicha xavfsizlik talablarini o'rgatish.....	664
Jumayev Yunus Rashidovich	
Texnika yo'nalishidagi talabalarini ingliz tilini multimedia asosida o'qitishda o'quv modullarini loyihalash ...	670
Maxmudova Shaxnozaxon Odiljon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlashga o'rgatish	674
Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
<i>Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna</i>	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
<i>Ибрагимова З. И.</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rni	725
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari	730
<i>Xaitova E'zoxon Baxrom qizi</i>	
Sun'iy intellektdan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari	734
<i>Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nutq o'stirish faoliyatining o'rni	737
<i>Toshpulatova Nargiza Abduraimovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarga tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik munosabatlarini shakllantirish usullari	741
<i>Bo'riyeva Fayyoz Baxodirovna</i>	
Maktab ta'limida o'quv tadqiqot ishlarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida	745
<i>Jurayeva Umida Yuldashevna</i>	
Texnologiya o'qituvchilarining professional kompetentligini shakllantirish texnologiyasi	748
<i>Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna</i>	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
<i>Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Abdurahmon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
<i>Pardaeva Matonat Salimovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
<i>Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi</i>	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni	772
<i>Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
<i>Xolikov Akmal Tajidinovich</i>	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
<i>Axmedova Dilmora Kobiljonovna</i>	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
<i>Туракулова Дурдона Боходировна</i>	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
<i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadiryevich</i>	
Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионально ориентированного языкового образования: роль паремий в формировании межкультурной коммуникации	788
<i>Амануллаева Камола Муминовна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....	794
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	

Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar	797
<i>Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
<i>Djamolova Noila Zayniddinovna</i>	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
<i>Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna</i>	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
<i>G'afforova Hurriyat Yangiboyevna</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
<i>Jalolova Feruza Mirkamol qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
<i>Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi</i>	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
<i>Karimova Shoxsanam Islomovna</i>	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
<i>Karimova Zarrina</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
<i>Maryam Raximova</i>	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
<i>Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna</i>	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
<i>Nutfiyeva Dildora</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
<i>O'tasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
<i>Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi</i>	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
<i>Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li</i>	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
<i>Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li</i>	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
<i>Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi</i>	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
<i>Kadirova Sayyora Madaminovna</i>	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
<i>Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li</i>	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
<i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
<i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
<i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
<i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
<i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
<i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
<i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>	
Pedagogik mahorat	908
<i>Zakirova Difuza Ergashboyevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
<i>Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
<i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
<i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
<i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
<i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING YOZUV MALAKASINI OSHIRISH YO'LLARI

Boltayeva Barno Isakulovna

JDPU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
 metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda yozuv malakasi – bu harflarning to'g'ri shaklini o'rganish, ularni bir-biriga bog'lab, xatolarsiz chiroyli va o'qiladigan yozuvni hosil qila olishdan iboratdir. Bu jarayonda o'quvchi har bir harfning tuzilishi va yozilishini o'rganadi, tasavvur hosil qiladi, o'qituvchi esa o'quvchilarning to'g'ri yoki xato yozganini aniqlab, tuzatishi kerak bo'ladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, boshlang'ich ta'lim, yozuv, yozuv malakasi, harf shakli, chiroyli yozuv, imloviy savodxonlik.

Abstract: In elementary grades, writing skills refer to learning the correct form of letters, connecting them to produce beautiful and legible writing without errors. In this process, the student needs to take into account the structure and spelling of each letter, form an imagination, while the teacher should identify and correct whether the students have written correctly or incorrectly.

Key words: primary school, primary education, writing, writing skills, letter form, beautiful writing, spelling literacy.

Аннотация: В начальных классах навыки письма заключаются в освоении правильного написания букв, их соединении для создания красивого и разборчивого письма без ошибок. При этом ученик должен учитывать структуру и написание каждой буквы, развивать воображение, а учитель – определять и исправлять ошибки в написании.

Ключевые слова: начальная школа, начальное образование, письмо, навыки письма, начертание букв, красивое письмо, орфографическая грамотность.

KIRISH

Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan chiroyli yozuvga ham bog'liq. Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Husnixatga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. Husnixat oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalashga, ongli o'qish va yozish malakalarini, shuningdek, yozuv daftarlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallashga, darslikda berilgan o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy materiallarni uyg'unlashtirib o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifati, topshiriqlar xususiyati va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart-sharoitlarga bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alifbegacha tayyorgarlik davrining asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab va sinf bilan, tartib-intizom qoidalari bilan tanishtirishdan iborat. Ularga nutq, og'zaki va yozma nutq haqida, gap, nutqning gaplardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi; tovush, bo'g'inlarning tovushlardan tuzilishi; tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishini o'rgatish, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalarini hosil qilish lozim. Bu davrda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga "Alifbe"da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo'shiqlar va latifalarni aytirish tavsiya etiladi.



Tayanch so'zlar asosida gap tuzdirish, "Alifbe" sahifalaridagi so'zlar va ularning ma'nolari ustida ishlash kabi mashg'ulotlar uyushtiriladi (bunday ishlar har bir darsda mavzuga bog'liq ravishda izchil davom ettirib boriladi). Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilar daftar bilan, yozuv chiziqlari bilan tanishtiriladi, harf elementlarini yozishga o'rgatiladi, namunaga qarab grafik xatolarni aniqlash va o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Alifbegacha bo'lgan davrda tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish. Boshlang'ich sinflarda harflarning shaklini to'g'ri yozishga o'rgatish o'qituvchidan ham, o'quvchilardan ham ko'p mehnat talab etadi. O'quvchi har bir harfning tuzilishini, yozilishini ko'rish va tasavvur hosil qila olishi lozim. O'qituvchi esa o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlashi va ularni tuzatish yo'llarini belgilashi kerak. 1-sinfda dastlab to'g'ri o'tirish qoidalari, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri qiyalikda qo'yish kabi talablar asosida so'zlarni to'g'ri yozish qoidalari o'rganiladi. Boshlang'ich sinf dasturi talabiga ko'ra, 1-sinfning 4-choragida yozuv darslari uchun 24 soat vaqt belgilangan bo'lib, undan haftasiga bir soati chiroyli yozuvga ajratilgan. 2-sinfda chiroyli yozuv texnikasiga oid kichik va bosh harflarni bir xil balandlikda chamalab yozish, 5-6 harfdan iborat bo'lgan kichik va bosh harflarni uzmasdan yozish kabi qoidalar talab qilinadi. Shuningdek, harflarning sodda va murakkabligiga qarab guruhlariga bo'lib yozdiriladi. 2-sinfda chiroyli yozuv uchun haftada 1 soat vaqt ajratilib, yiliga 34-35 soatni tashkil etadi. 3-sinfdan boshlab esa bu qoidalarga tez va toza yozish qoidalari ham qo'shiladi. Bu davrda yozilishi va bog'lanishi murakkab bo'lgan kichik va bosh harflarning yozish qoidalari mashq qildiriladi. Ayniqsa, bu davrda bog'lanishi murakkab bo'lgan so'z va gaplarni ravon yozish ustida ko'proq mashqlar olib boriladi. 3-sinfda husnixat darslari ona tili darslari bilan birgalikda har kuni olib boriladi.

4-sinfda harflarni qoida bo'yicha to'g'ri yozish malakalari mustahkamlanadi. So'z va gaplarda qiyin bog'lanishli harflarni topib tahlil qilinadi hamda ravon va tez yozish malakalari rivojlantirilib, o'quvchilarning yozuvlarida uchraydigan tipik xatolar ustida mashq qildiriladi. 4-sinfda ham chiroyli yozuv darslari ona tili darslari bilan har kuni olib boriladi. O'quvchilar tomonidan ham, o'qituvchi tomonidan ham har bir harf aniq yozilishiga erishish uchun ko'p mashq qilish talab etiladi. Dastlab yozish sur'ati sekin bo'ladi, keyinchalik o'quvchilar harflarning yozilish shaklini yaxshi o'zlashtirib olganlaridan so'ng yozuvning tezligi ortib boradi. Harflarning shaklini tushuntirishda dastlab doskaga yozib ko'rsatish juda muhimdir. Buning uchun o'qituvchining o'zi yaxshi yoza olishi kerak. Agar o'qituvchi bir harfni bir safar boshqa shaklda, ikkinchi safar yana bir shaklda yozib ko'rsatsa, o'quvchilarda ikkilanib qolish holati kuzatiladi va xatoga yo'l qo'yishlari mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchi to'g'ri yoki noto'g'ri yozilgan harflarni bir-biridan ajrata olishi, ulardagi asosiy kamchiliklar nimadan iborat ekanligini ko'rsata olishi lozim. Shuning uchun ham o'quvchilarda harfning shaklini analitik ko'rish malakasini o'stirish talab etiladi. Analitik ko'rish malakasi faqat to'g'ri va noto'g'ri yozilgan harflarni solishtirish orqali o'stirib boriladi. O'qituvchi o'rgatmoqchi bo'lgan harfning shaklini va yozilish tartibini doskaga yozib ko'rsatib bergandan so'ng, o'quvchilarga 2-3 qator mustaqil yozishga ruxsat etiladi. Bu vaqt ichida o'qituvchi sinfni aylanib, o'quvchilarning yozuvini tekshirib chiqishi va xato yozayotgan o'quvchilarning yozuvlaridan bittasini namuna uchun tanlab olib, doskada o'quvchi qanday xato yozgan bo'lsa, o'qituvchi ham shunday shaklda yozib ko'rsatadi. Agar o'quvchilar o'z o'rtoqlarining yo'l qo'ygan xatosini ko'rsalar, shu ondayoq qo'l ko'tarishi va o'rtoq'i yo'l qo'ygan xatoni tuzatishga harakat qilishi lozim. Agar o'quvchi harfni juda ham noto'g'ri yozgan bo'lsa, o'quvchilar taajjublanadilar va unga tanqidiy nazar bilan qaraydilar. Shunday tanqidiy munosabatning o'zi ko'p xatolarning oldini olishga yordam beradi. Bunday noto'g'ri yozilgan harflarni doskada yozib ko'rsatish orqali tahlil qilish maqsadga muvofiqdir, chunki uni hamma o'quvchilar kuzatib turadilar. Qoida bo'yicha o'quvchilar harflarni elementlarga ajratib yozmasalar ham, har bir harfning qanday elementlardan tuzilganini, yozayotganda ruchkani qaysi tomonga harakat qildirishni, qayerda burilish bo'lishini, qaysi elementi qanday qiyalikda yozilishini yaxshi bilishlari kerak. Bu esa o'quvchilarga harflarning shaklini yana ham chuqurroq o'zlashtirib olishga katta yordam beradi. 1-sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo'lib, bir necha xil vazifani o'z ichiga oladi:

- Bolalar o'qituvchining so'zini tinglaydilar;
- Doskaga yozgan harf va so'zlarni ko'rib boradilar;
- Ayrim matnlarni ko'chirib yozadilar;
- So'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar va boshqalar.



Har bir yozuv mashg'ulotini boshlashdan oldin hamda butun dars jarayonida ham o'quvchilarga to'g'ri o'tirish qoidalarini eslatib turish maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Bu masalani oson hal etishning yana bir yo'li – sinfga to'g'ri o'tirish qoidalarini ko'rsatilgan ko'rgazmali materiallarni osib qo'yishdir. O'quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish va muhabbat uyg'otish uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi chiroyli yozishi lozim. 1-sinf o'qish darslarida o'quvchilar tovush hamda bosma harflar bilan tanishtirilsa, tovush va harflarni analiz va sintez qilish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Shu kabi yozuv darsining ham ayrim spetsifik xususiyati bor. Masalan, agar o'quvchilar o'qish darsida "Alifbe" kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsa ko'rinmaydi. Har bir harf va uning elementini o'quvchining o'zi namunaga qarab yozadi. Shuning uchun ham bu sinfdan yozuvga o'rgatish o'z navbatida quyidagi kabi qator tushunchalarni bilishni talab etadi: baland-past, bir xil, keng-tor, yaqin-uzoq, yuqoriga, pastga, o'rta (oraliq), uzunroq-kaltaroq, teng, teng bo'lmagan masofa, to'g'ri-qiya, chapga-o'ngga.

O'qituvchi yozuv malakasiga o'rgatishga boshlashdan oldin o'quvchilar bilan yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o'quvchilarga harflarning shaklini va harakatini yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi. 1-sinfda yozuv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo'lgan davrni birmuncha uzaytirish mumkin. Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o'qish darsi o'rtasida birmuncha farq bo'lishi mumkin, bundan cho'chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o'quvchilar so'z va harflarni o'tilgan materiallar asosida yozib o'rganadilar. Keyinchalik esa o'qish bilan yozuv darsi bir-biri bilan uzviy bog'langan holda davom etadi. O'qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari asosan og'zaki nutqni o'stirishga qaratiladi. Ammo butun dars davomida og'zaki nutq bilan shug'ullanish bolalarni zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun bu darslarning ma'lum qismini og'zaki nutqni o'stirishga, ma'lum qismini esa yozuv mashqlari uchun sarflash kerak. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etishning ahamiyati kattadir. 1-sinf o'quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to'g'ri olib borish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

1. Partada to'g'ri o'tirishga, avtoruchkani to'g'ri ushlashga va daftarni to'g'ri tutishga o'rgatish.
2. O'quvchilarning husnixatga qiziqishlarini o'stirish.
3. Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o'stiruvchi mashqlarni bajartirish.
4. Qo'l va barmoq muskullarining harakatini o'stirish.

XULOSA

Tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o'quvchilarni qora va rangli qalamlar hamda yozuv daftari bilan ta'minlash lozim. O'qituvchining bu jarayonda rangli bo'rlardan foydalanishi yaxshi samaralar beradi, chunki yosh bolalar rang-baranglikni yoqtirishadi va bu ularda qiziqishning ortishiga turtki bo'ladi. Aynan shu qiziqtirish orqali ko'plab o'qituvchilar bolalardagi yashirin qobiliyatlarni aniqlab olishlari mumkin. Masalan, ba'zi bolalar rang-tasvirga qiziqishlari mumkin va buni o'sha rangli bo'rlar aniqlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov Y.Y., Qo'ldoshev R.A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo'llanma). Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti, 2017. – 132 b.
2. Azimov Y., Qo'ldoshev R. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari. GlobeEdit, 2020.
3. Azimov Y., Qo'ldoshev R. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo'llanma). GlobeEdit, 2020. – 141 b.
4. Qo'ldoshev R. Sinf chapaqay o'quvchilarining maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni // Pedagogik mahorat, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.